

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bayon yozishga o'rgatish metodikasini
takomillashtirish yo'llari**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Rahmatullayeva Sabohat Sa'dullayevna,

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

*1.22-guruh talabasi **O'rolova Marjona***

Annotatsiya: *Bu maqolada bayon va uning mazmuni, boshlang'ich sinflarda uning turlari o'tkazilish usullari haqida ma'lumot berilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida metodik tavsiyalar va xulosa berilgan*

Kalit so'zlar: *Bayon, bayon turlari, bog'lanishli nutq, interfaol metodlar, baholash mezonlari, bayon yozish me'yorlari va usullari.*

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni bayon yozishga o'rgatish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat talab etadigan muhim va asosiy ish turlaridan biridir. Bayon bolalarda adabiy nutqning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy estetik jihatlarini tarbiyalaydi, tilga sezgirlikni oshiradi. Bayon - o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir.

Bayonning esa quyidagi turlari mavjud:

1. Tasvir elementlari bo'lgan bayon
2. To'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish.
3. Grammatik topshiriqli yoki ijodiy qayta hikoya qilinadigan bayon.
4. Matn mazmunini qisqartirib yoki tanlab hikoya qilish bayoni
5. Nazorat bayoni

1. To'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish bayoni. 2-sinf ikkinchi yarim yillikdan boshlab o'rgatiladi. Bunda tez yodlab oladigan kichik matnlar, she'rlarni hikoya qilish tavsiya etilmaydi.

2. Tasvir elementlari bo'lgan bayon. Bu bayon 3-4-sinflarda o'tiladi. Mazmuni murakkab 3-4 hatto undan ortiq satr boshidan iborat matnlar tanlanadi. Voqealarga bog'liq bo'lgan qahramonlar tasvirlari, tabiat tasvirlari aks etadi.

3. Grammatik topshiriqli yoki ijodiy qayta hikoya qilish bayoni. Bu bayon 3-4- sinflarda o'rgatiladi. Buni yozish uchun izohli diktantlar olingan bo'lishi, o'quvchilar shaxsni o'zgartirib hikoya qilish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lishi kerak.

4. Matn mazmunini qisqartirib yoki tanlab hikoya qilish bayoni.

Boshlangich sinf ona tili ta'limi o'quvchilarda tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish ko'nikmalarini hosil qilish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunda ona tili darslarida bayon yozishga o'rgatish katta ahamiyatga ega bo'lib kishilarning fidokorona mehnati, hayoti, ona tabiat tasviri, fan-texnika, madaniyat borasidagi yutuqlarini aks ettiradigan yuksak g'oyali bayon mavzusi o'quvchilarning bilish tajribasini kengaytirib, ularning dunyoqarashini shakllantiradi. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishning bir qancha turlaridan foydalaniladi. Ana shunday ish turlaridan biri bayondir. Bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mazmuni, syujeti, kompozitsiyasi hamda asosiy g'oyasini chuqur tushunib oladilar. Bu esa nutq malakasini takomillashtirishga yordam beradi. Grammatika va orfografiyadan olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etadilar, ularning nutqida yangi-yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi, materialni mustaqil va samarali bayon etish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shu jihatdan bayon yozma nutq malakasini hosil qilishda muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan bayonlar ko'proq ta'limiy xarakterga ega bolib,ular og'zaki va yozma holda olib boriladi.I-V sinflarda bayonlarni muntazam o'tkazib turish o'quvchilarningso'zlarni tog'ri talaffuz qilishga,matnni ongli,ifodali o'qish va so'zlab berishga yordam beradi.Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning so'zlarni togri yozish malakasini rivojlantirishga,o'zbek adabiy til normalarini mukammal o'zlashtirishga hamda nutq madaniyatini egallash uchun imkon yaratadi.

Bayon yozishga o'rgatishdagi asosiy metodik tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi tomonidan matnni ifodali ta'sirli qilib o'qib berish va savollar yordamida qismlarga bo'lib yoki to'liq holda so'zlatish.
2. Bayon rejasi ustida ishlash.
3. Lug'aviy-orfografik ishlar,matnda uchragan qiyin so'zlar ma'nosi va imlosini tushuntirish:obrazli iboralardan foydalanish yo'llarini o'rgatish.
4. Matnni qayta o'qib berish va 2-3 o'quvchiga reja asosida hikoya qildirish.
5. Bayon yozishga ruxsat etish.

Bayon yozish vaqtida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tegishli yordam beriladi.Imlosi o'rganilmagan so'zlarni qisqacha izohlaydi.Ularga orfografik lug'atdan foydalanishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda bayonning quyidagi turlari o'tkaziladi:

- 1.To'liq yoki mukammal bayon.
- 2.Tasvir elementlari bo'lgan bayon.
- 3.Grammatik topshiriqli bayon.
- 4.Matn mazmunini qisqartirib bayon qilish.
- 5.Boshlab berish yo'li bilan bayon qilish.

1.To'liq yoki mukammal bayon qilishO'quvchilar bayonning bu turida ifodali o'qish darslarida o'qilganlarni qayta hikoya qilib berish uchun qiynaladilar.Bunday hollarda o'qituvchi o'qilgan matnning mazmuniga mos savollarda foydalanadi.(1-2-sinflar uchun) bayon 3-4- sinflarda o'tiladi va

ko'proq mustaqil fikrlashni talab qiladi. Bunda o'quvchilar matn mazmuniga putur yetkazmay, undagi har bir bo'limdan asosiy mazmuni ajratib olishlari kerak bo'ladi. Bu bayon ham o'z navbatida 3 turga bo'linadi:

1. O'qilgan matn qismini yoki bir voqeani unga chizilgan rasm asosida hikoya qilish

2. O'qituvchining topshirig'i yoki berigan savollar asosida alohida lavhani hikoya qilish.

3. Berilgan mavzu bo'yicha matnning turli qismlaridan olingan parchalarni hikoya qilish.

5. Nazorat bayoni Bu bayonni o'tkazish tartibi quyidagicha:

1. Matnni aniq, ifodali, ta'sirli qilib o'qib berish va savollar yordamida qismlarga bo'lib yoki to'liq holda so'zlatish.

2. Bayon rejasi ustida ishlash, matn mazmunini reja asosida qayta hikoya qilish.

3. Lug'aviy - orfografik ishlar; matnda uchraydigan qiyin so'zlarning ma'nosi va imlosini tushuntirish, tasvirli iboralardan foydalanish yo'llarini o'rgatish, imlosi o'rganilmagan so'zlarni xattaxtaga yozish.

4. Matnni qayta o'qib berish va 2-3 o'quvchiga reja asosida qayta hikoya qildirish.

5. Matnni yozma ifodalashga ruhsat etish.

Bayon yozishni o'rgatishda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar: 1. O'quvchilarga lug'at daftari yurgizish. 2. Bayon yozishdan 10 kun oldindan bayonda uchraydigan so'zlarni darslarda qo'llash. 3. Matnni o'quvchi yoshiga, sinf o'quvchilarining holatiga moslab tanlash. 4. Talffuzi va imlosi qiyin so'zlarni darslarda tahlil qildirish. 5. Og'zaki qayta hikoya qilishda o'quvchi talaffuziga e'tibor berish. 6. Matndagi har bir so'z ma'nosini bildirish. 7. Matndagi so'zlarning ma'nodoshlarini, qarama-qarshi ma'nolisini, hayotda qo'llaydigan turlarini o'rgatish. 8. Bayonni baholashda xatolar ustida ishlash uchun 10-15 daqiqa ajratish va umumiy baho berish. 9. Eng yaxshi yozilgan 2-3 ta bayonni o'qib berib, boshqa ishlardagi tipik kamchiliklarni (rejadan chiqib

ketish, soʻzlar oʻrnini almashtirish , gapni notoʻgʻri tuzish , soʻzni, boʻgʻinni, harfni tushirib qoldirish) koʻrsatish lozim. 10. Kimning ishi koʻrilgan boʻlsa oʻsha oʻquvchilarga soʻzlatish, boʻshroq oʻquvchilarni yaxshi soʻzlar bilan ragʻbatlantirish kerak. Bayon oʻtkazishda oʻquvchilar matn mazmunini qanday tushunganliklari, oʻz fikr va tushunchalarini ijodiy va mustaqil ifodalaganlari, yozma nutq malakasi va savodxonligi sinab koʻriladi. Bayon uchun matn tanlashda esa oʻqituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim: 1. Bayon turi oʻquvchilarning kuchiga qarab belgilanadi. 2. Matnlar mazmuni oʻquvchilar uchun mos boʻlishi shart. 3. Bayon ustida ishlash quvchilarning bogʻlanishli nutqini oʻstirishga qaratilgan mashgʻulotlarning boshqa turlari bilan chambarchas bogʻlangan boʻlishi zarur. Boshlangʻich sinf ona tili dasturiga koʻra 3-sinfda 40-60 soʻzdan iborat matnning mazmunini jamoa boʻlib tuzilgan 3-5 ta reja asosida bayon yozish koʻzda tutiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ona tili darslarida oʻquvchilarni bayon yozishga toʻgʻri yoʻnaltirish oʻquvchining ijodiy tafakkurini oʻstirish bilan bir qatorda ularni soʻz boyligini oshirishga va oʻz fikr tushunchalarini izchil va erkin bayon eta olishga oʻrgatishi bilan oʻta muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. K. Qosimova Ona tili oʻqitish metodikasi Toshkent - 2009
2. R. Safarova Ona tili oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma “Sharq” nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2016
3. M. Umarova “Bayonlar toʻplami” Toshkent – 1992
4. “BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻTKAZILADIGAN BAYON TURLARI VA ULARNI OLIB BORISH USULLARI” Mirsaitova Goʻzal Baxodir qizi Toshkent viloyati Nurafshon shahar 26- maktabning boshlangʻich sinf oʻqituvchisi